



PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSI VA UNI TADQIQ QILISH

Gafurova Feruza Olimovna

Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: O.R.Avezov

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiyada shaxs identivligi muammosi va uni tadqiq qilish to'g'risida so'z boradi. Ushbu maqola identivligi rivojlanishiga hissa qo'shadigan omillarni taqdim etishga qaratilgan. Biz kontseptsiyasining tarixiy ko'rinishlariga nazar tashlaymiz va o'ziga xosligini ta'riflaymiz.

Kalit so'zlar: psixologiya, identivlik, tafovut, shaxs, individ.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема личностной идентичности в психологии и ее исследования. Целью данной статьи является представление факторов, которые способствуют развитию идентичности. Мы рассматриваем исторические проявления ее концепции и описываем ее уникальность.

Ключевые слова: психология, идентичность, отличие, личность, индивидуум.

Abstract: This article deals with the problem of personal identity in psychology and its research. This article aims to present the factors that contribute to the development of identity. We look at the historical manifestations of its concept and describe its uniqueness.

Key words: psychology, identity, difference, person, individual.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotida inson bosh omil, shu jamiyatning rivojlantiruvchisi bo'lib hisoblanadi. Uning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, tarbiyalanish ana shu jamiyatda yuz beradi. Insonning shaxs sifatida tarkib topishi, unga ta'sir etuvchi omillar, uning mexanizmlari haqida psixologiya fani aniq ma'lumotdariga ega. Inson dunyoga odam bo'lib keladi. Odamning shunchaki insoniyat vakili sifatida baholanishi termini bilan bog'liq. Har bir individ takrorlanmas sotsial fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgandagina u shaxs bo'lib yetishadi. Psixologiyada tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzidagi sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi. Shaxs sifatida kamolatga erishmagan individ bo'ladi. Buni hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar misolda olish mumkin. Lekin individni shaxsga aylanishida qanday omillar zarur? Umuman shaxs deb kimga aytamiz? Shaxs haqida ta'rif berilganda rus psixolog S.Rubinshteynning fikrlariga to'xtalmoq darkor. Olimning ta'kidlashishcha Odam o'zida takrorlanmas xususiyatlariga ko'ra individualdir. Odamning o'z atrofdagilarga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, uning biron bir faoliyat bilan shug'ullanishi esa uni



shaxs ekanligidan dadolatdir. Shaxs odamning atrofga bo'lgan munosabatlarini va o'zo'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari uning dunyo qarashida, intilishlarida, qiziqishlarida ishonchlarida va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanadi. Demak, shaxs bu ongga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy iqtisodiy formasiyada yashaydigan, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan odam individdir. Shaxsning tarkib topishi uzoq muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir, shaxs ijtimoiy taraqqiyot maxsuli sifatida juda ko'p fanlarning o'rganish, obyekti hisoblanadi jumladan, falsafa, pedagogika, psixologiya, etika, tibbiyot va boshqa fanlar uning turli tomonlarini o'ziga xos tarzda tadqiq etadi. Shaxs shakllanish haqida gapirar ekanmiz, albatta u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir.

ASOSIY QISM

Har qanday shaxs ijtimoiy muhitning unga yuklagan yangi roli - institut talabasi, ota-onas, rahbar va shu kabi rollarni ijro etishga o'tganida o'zini dastlab "yaxshi" his qiladi. Lekin asta-sekinlik bilan shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari ushbu rollarni o'ziga singdiradi va bu rollarni eplash-eplamasligiga qarab shaxsning "Men" konsepsiyasida o'zgarishlar yuzaga keladi.

Ijtimoiy identivlik. Shaxsdagi "Men" konsepsiya - bu uning o'zi haqidagi tasavvurlari bo'lib, u o'z ichiga nafaqat personal identivlikni (shaxsiy sifatlari haqidagi tasavvurlari), balki ijtimoiy identivlikni ham oladi. Ijtimoiy "Men" tushunchasi irqiy, diniy, jinsiy, kasbiy va h.k.mansublikni ham bildiradi. Ya'ni ma'lum davraga mansub "biz" tushunchasi va unga kirmaydigan "ular" tushunchasi mavjud. Shaxs qandaydir bir katta guruhning tarkibiga kiruvchi kichik guruhning vakili bo'lsa, o'z ijtimoiy identivligini aniqroq anglaydi. Shaxsning o'zini mansub deb bilgan guruhi ko'pchilikdan tashkil topganida, u bu haqida o'ylamaydi ham. Erkaklar guruhidagi yagona ayol ham, ruslar orasidagi yagona o'zbek ham o'z unikalligini anglaydi. Yotoqxonadagi bittagina boshqa o'quv yurtining talabasi, psixologiya fakulteti talabalari orasida o'zining kasbiy identivligini chuqrarroq sezadi va shunga yarasha reaksiya bildiradi (Kalin & Berry, 1995).

Ijtimoiy qiyoslar. Qanday qilib shaxs o'zini badavlat, aqli yoki past bo'yli deb hisoblashga qaror qiladi? Bunda unga ijtimoiy taqqoslash usuli yordam beradi (Festinger, 1954). Atrofdagi odamlar shaxsga ma'lum standartlar ishlab chiqishga turtki berishadi, bu standartlar yordamida u o'zini boy yoki kambag'al, aqli va aqlsiz, baland yoki past bo'yli deb aniqlaydi. Atrofdagilar bilan o'zini qiyoslab, ulardan nimasi bilan farq qilishini aniqlaydi. Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini yuqori ko'rsatkichlar bilan tugallab, o'zining intellektual qobiliyatlariga ishongan ko'pgina bitiruvchilar obro'li oliy o'quv yurtlariga kirib, u yerda o'ziga o'xshagan a'lachi talabalarni ko'rganidan keyin o'zini endi oldingidek hurmat qilmayotganligini his etishganligini tadqiqotchilar aniqlashgan (Marsh et al., 2000). Demak, yuqoridagilardan ko'rindaniki, shaxs o'zining atrofidagilarga nisbatan qiyoslash orqali o'zining kimligini anglay boradi.



Shaxsning individuallik va identivlik xususiyatlarini talqin qilish. E'tibor berish kerakki, sinaluvchi ijtimoiy rollar (o'quvchi, talaba, farzand, qiz bola, yigit...) rasmiy biografik xarakteristikalardan boshqa, o'ziga xosliklarni ham keltirganmi (masalan: lider, optimist, qobiliyatli inson...) yoki u oddiy ijtimoiy hayot mahsulimi. Aynan shu o'rinda, sinaluvchiga hech kimga o'xshamaydigan individualliklari (o'ziga xosliklari)ni javoblari orasidan ko'rib chiqish va yana qo'shimcha ravishda chuqurroq o'ylab ko'rish tavsiya etilishi kerak (bunga yana alohida 1 daqiqa vaqt berilishi ham mumkin). Sinaluvchining faqat ijtimoiy, rasmiy, biografik rollarini keltirgan bo'lishi, u insonning o'zida boshqa narsa ko'rmasligi, muammo va o'ylantiradigan masalalarni niqoblashi yoki ularni bir chetga surib qo'yganligi belgisidir. Shuningdek, har xil ko'rinishga ega lekin bitta mavzu (muammo yoki masala)ga taqaluvchi javoblarni topish orqali sinaluvchini muammosini topishga harakat qilishi kerak. E'tiborga olish kerakki, yopishqoq fikrlar va diqqat dominantalari ham shu berilgan sinonomik xususiyat bilan qaytariluvchi ta'kidlarda yashiringan bo'lishi mumkin. Shaxs bir qator identivlik (mansublik) larga ega bo'lishi mumkin, jumladan: jinsiy, ijtimoiy, e'tiqodiy-ma'naviy, oilaviy, kasbiy, individual, jismoniy, o'quv-ta'lif sohasi kabi shaxs identivliklarini aytish mumkin. Sinaluvchi bergan javoblarni har birini u yoki bu shaxs identivligiga kiritish mumkin va ifodalanganligi bo'yicha ular quyidagicha darajalanadi. Bevosita kuchli ifodalangan shaxsiy identivliklar. Misol uchun: erkak, yigit, o'g'il bola, yoki, ayol, qiz bola bunday javoblar sinaluvchining jinsiy identivligini ko'rsatadi. Shunday bir yo'nalishdagi identivliklarning ko'pligi, sinaluvchining qadriyat darajasiga chiqqan identivligini ham ifoda etishi mumkin. Bilvosita (yashirin) ifodalangan shaxsiy identivliklar. Bunda muayyan identivlikning elementlarini javoblarda kuzatamiz, misol uchun bilvosita jinsiy identivlikning ifodalanganligi: o'quvchi qiz, odobli qiz, chirolyi qiz, yoki, yaxshi yigit, odobli bola, mehribon o'g'il. E'tibor qaratish lozimki, bilvosita ifodalangan identivliklarning ko'pligi (va bir vaqtning o'zida bevosita kuchli ifodalangan identivliklarning yo'qligi), o'sha identivlikning shaxs tomonidan chuqur anglanilmaganligi yoki siqib chiqarilganligidan darak beradi. Identivlikning ifodalanmaganligi. Identivlikning bilvosita va bevosita ifodalanganlik darajalari juda kam yoki umuman yo'qligi, shaxsda identivlik rivojlanmaganligi hamda identivlik qadriyat yo'nalishi shakllanmaganligi yoki chuqur siqib chiqarilganligidan dalolat beradi. Bunday hollarda sinaluvchiga dahldorlik va mansublik hissini oshirishga qaratilgan motivlar berilishi kerak. Ayniqsa, jinsiy, ijtimoiy, oilaviy shaxs identivliklarini shakllantirish va rivojlantirishga urg'u berish darkor. Insonda shaxs identivligi yo'qligi, begonalashuv va deviant xulq-atvorning vujudga kelishiga olib keladi, bu esa oldini olish lozim bo'lgan oqibatdir. Ta'kidlash joizki, muayyan identivlikka xos bo'lgan javob variantlarining ko'pligi, shaxsning o'sha identivlikka mansublik darajasini va o'sha muayyan identivlik shaxs uchun muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA

Odamni shaxs sifatida tevarak - atrofdagi kishilar va narsalar bilan bo'lgan aloqalari ularning ishlab chiqarish faoliyatlarida, odamlar o'rtasida yuzaga keladigan



munosabatlarda namoyon bo'ladi. Odam boshqa kishilar bilan bo'lgan munosabatlardagina shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Demak, shaxs kishilik jamiyatida yashaydigan, faoliyatni biror turi bilan shug`ullanadigan, til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotda bo`la oladigan, ongi yuksak rivojlangan komil insondir. Odam turli guruhlarga kirar ekan, har xil vazifalarni bir - biriga o`xshamagan rollarni bajaradi. Ba`zi bolalar oilada erkatoj, injiq bo`lsa, maktabda tengdoshlari o`rtasida kamtarin, odobli, xushchaqchaq bo`ladi. Ishda juda jiddiy yuradigan odam biror sayohatga borganda hazilkash, qiziqchi bo`lib yurishi mumkin. Ko`pincha kishi turli vaziyatlarda o`xhash sifatlarni namoyon qiladi. Odamning psixik holatlarini o`zgarishi tashqi muhitga va ijtimoiy tarbiyaga bog`liqdir. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o`zgaruvchan xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligi va o`zaro bog`liqligidan iborat bo`lgan murakkab birlikni, ya`ni dinamik tuzilishni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi», 1998.
2. G'oziev E. Psixologiya. T.: O'qituvchi, 1999.
3. Anikeeva N.P. Jamoada ruhiy muhit. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: 2000.
5. Andizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. T.: 2000